



Shahzoda Rixsiboyeva

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Tarix yo'nalishi talabasi

e-mail: shahzodarixsiboyeva11@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15486971>

TURKON XOTUNNING SIYOSIY FAOLIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada XII-XIII asrlarda Xorazmshohlar davlati siyosatida muhim ro'l o'ynagan Turkon Xotunning siyosiy faoliyati tahlil qilinadi. Unda Malikaning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, taxt vorisligi masalasidagi ta'siri, qipchoq urug'i bilan aloqalari tarixiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek uning faoliyati davlat ichki siyosatiga ta'siri va tarixiy shaxs sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar. Turkon Xotun, siyosiy faoliyat, Xorazmshohlar davlati, taxt vorisligi, qipchoqlar, ayollar boshqaruvi.

Kirish. Tarixiy jarayonlarda ayollarning davlat boshqaruvida ishtiroki har doim ham keng o'rganilinmagan. Ammo ayrim davrlarda kuchli irodali, dono va siyosiybilimga ega ayollar o'z faoliyatlari bilan tarixda muhim iz qoldirgan. Xususan Xorazmshohlar davlatida faoliyat ko'rsatgan Turkon Xotun shular jumlasidandir. U nafaqat sulolaning malikasi sifatida, balki bevosita davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatgan shaxs sifatida tarix sahnasiga chiqqan. Ayniqsa, uning o'g'li Sulton Alouddin Muhammad davrida davlat ishlariga faol aralashgani, taxt vorisligi masalasidagi ishtiroki va qipchoq urug'lari bilan munosabatlari ilmiy tahlil qilinadi. Tarix sahnasida Xorazmshohlar davlati o'zining qudrati, siyosiy mavqei bilan ajralib turadi. Ushbu davrning asosiy qahramonlari orasida davlat siyosatiga kuchli ta'sir ko'rsatgan Turkon Xotunning (1150-1233) o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. Sulton Alouddin Takashning (1172-1200) davlat taqdirini belgilovchi tadbiri ya'ni qang'li-qipchoq turk

qabilalarining Xorazmshohlar tarkibiga qo'shilishini ta'minlashga qaratilgan siyosati natijasi o'laroq tarix sahnasiga kirib kelgan.

Turkon Xotun haqida gap ketganda bir yoqlama salbiy fikr bildirilib kelingan. Darhaqiqat Sulton Alouddin Muhammad davrini o'rganar ekanmiz unda onasi Turkon Xotunning yetakchi ro'l o'ynagani, uning buyruq, farmonlari o'g'li tomonidan so'zsiz bajarilganini ko'ramiz. Ba'zan bu buyruq, farmonlar no'tog'ri bo'lsa ham ular orasida o'g'lining manfaatlarini va mamlakat taqdirini o'ylagan holda olib borgan ishlarini ko'rish mumkin.

Turkon Xotun hokimona fe'l-atvorga ega ayol edi [1,84]. Uning aynan shu fe'l-atvori valiaxdlik masalasida o'z so'zini o'tqazishga turtki bo'lgan. Sulton Alouddin Muhammad onasining ra'yiga qaragan holda o'zining valiaxdi qilib katta o'g'illari Rukniddin yoki Jaloliddinni emas balki kichik o'g'li O'zloqshohni tayinlaydi. Negaki shu davrda Turkon Xotun sharofati va homiyligi ostida qipchoq qabilalarining Xorazmshohlar davlati qo'shini va davlat boshqaruv apparatida ularning sezilarli o'rni va ahamiyati bu qarorga kelishga turtki bo'lgan. "Ajamiylar ham deyilgan bu odamlar malika tomonidan doimo himoya qilinadi va bular boshqaruvda so'z sohibi edilar" [2, 415].

Bunday vaziyatda taxt vorisi etib boshqa shahzodaning tayinlanishi qipchoqlar o'rtasida norozilikka va hattoki bu norozilik suiqaasdga ham aylanishi mumkin edi. Birgina misol, Sulton Alouddin Muhammad vafotidan oldin taxt vorisi etib tayinlagan O'zloqshoh o'rniga Jaloliddinga taxtni topshiradi. Shundan keyin Jaloliddin ukalari bilan birga Xorazmga qaytadi. Sulton qo'shinlaridan qumlar bag'rida yashirinib qolganlar hamda turli sabablarga ko'ra Xorazmga kelganlar to'planishib yetti ming otliqni tashkil etishdi. Ularning ko'pchiligi Bayot urug'idan bo'lib, qarindoshlik jihatidan O'zloqshohga moyil odamlar edi. Sultonning taxt vorisini almashtirish haqidagi buyrug'ini tan olmadilar. Ular Jaloliddinni ushlab daryoga cho'ktirish yoki o'ldirish rejasini tuzdilar [3, 114]. Bundan ko'rinib turibdiki davlat taqdiri jar yoqasiga kelib qolgan bir paytda ham qipchoq urug' zodagonlari uchun taxt egasi o'z urug' vakillaridan bo'lishi muhim edi.

Shuningdek, Turkon Xotun siyosatdon, uzoqni ko'ra oladigan aqlli ayol edi. Sulton Muhammadning o'z nomiga Bag'dodda xutba o'qitish va xalifa tomonidan uni Sulton deb tan olinishini xohlagan, lekin buni uddalay olmaganidan keyin "Xalifa o'lgan, uning nomini xutbadan o'chiringlar" deb farmon bergan. Shu yilning muharram oyida (1218-yil martda) Sulton avval Marvda, so'ng Balx, Buxoro va Saraxsda xalifaning nomini xutbadan oldirib tashladi. Ammo nima uchundir Samarqand, Hirot va Xorazmning o'zida Sultonning bu farmoniga amal qilmadilar [4, 39]. Albatta, Sulton farmoni bajarilmaganligi orqasida o'z onasi turgan. Negaki xalifalik maqomining xalq ustidagi ta'siri va ularning muqaddas shaxslar haqidagi tushunchada edi.

Xalifa bilan kelishmovchilik Sulton Alouddin Muhammadga qimmatga tushar va shu vaziyatni yumshatishga harakat qilgan Turkon Xotunning bu ishi o'rinlidir. Malika mamlakatda adolat tarozisini qattiq ushlagan holda xalqni zulm qiluvchlardan himoya qilib kelgan. Jaloliddinning kotibi va qaysidur ma'noda malikani yomon ko'ruvchi Nasaviy ham "u ulug'vor va aqlli ayol edi. Unga shikoyat xatlari, arznomalar kelgudek bo'lsa ularni sinchkovlik bilan adolat nuqtai nazaridan ko'rib chiqardi va jabr qiluvchining zulmi ostida ezilgan odam tarafini olardi. U mamlakat uchun ko'plab yaxshi ishlar qildi. Agar bularning barini birma-bir sanaydigan, uning ulug'vor ishlarini ta'kidlab ko'rsatadigan bo'lsak, yana ko'p qog'ozlarni qoralashimizga tog'ri keladi [3, 91] deb yozadi. Shuningdek Turkon Xotun G'ur sultoni Shahobiddinning katta qo'shin bilan to'g'ridan-to'g'ri Xorazm ustiga yurish qilayotganligi haqida xabar topib Gurganch mudofasini tashkil qilganligi [1, 117] shubxasiz uning mard va davlat xavfsizligiga befarq emasligini ko'rsatadi. Shu bilan birga mohir siyosatdon, aqlli malika bir vaqtning o'zida o'ta mag'rur edi. Chingizxonga asir tushgan malikaga o'z xizmatkorlaridan biri Badriddin Xilol unga Jaloliddin oldiga qochaylik deb aytganida Turkon Xotun unga qarata "Bunaqa gaplarni bas qil, yo'qol. Men qanday qilib Oy Chichenning o'g'li marhamatiga qaram bo'lib yashayman. O'g'illarim O'zloqshoh va Oqshohdan keyin undan panoh istaymi, unga yukinib boraymi? Xatto menga

Chingizxon qo'lidagi asirlikda boshimdan kechirayotgan sharmandalik va xo'rlik ham uning xuzuriga borishdan ko'ra a'lo" [3, 51] deb javob qaytaradi.

Xulosa. Malika Turkon Xotun o'rta asrlarning nufuzli ayollaridan biri bo'lib, o'rta asrlar davri tarixida ayollarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etganini ko'rsatadigan yorqin misollardan biridir. Uning faoliyati orqali ayollar davlat boshqaruvida muhim o'rin tutganligini ko'rish mumkin. Onaning o'z o'g'li va davlat manfaatlarini muhofaza qilishga bo'lgan intilishi bir tomondan davlatni boshqarishda tartib va qudratni ta'minlagan bo'lsa, boshqa tomondan qipchoq qabilalarining davlat boshqaruvidagi o'rni va nufuzini oshishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari o'sha davrdagi malikaning siyosiy nufuzi va qo'llab quvvatlashi, malikaning o'z qabiladoshlari harbiy ko'magi natijasida Sulton Alouddin o'z hokimiyatini mustahkamlab olishga, zafarli yurishlar qilishga muvaffaq bo'lgan.

Malika Turkon Xotun shubhasiz iste'dodli va kuchli ayol bo'lgan. U o'z davrining ta'sir o'tqazuvchi kuchli ayollaridan biri sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan. Tog'ri, uning ayrim siyosiy qarorlari masalan, taxt vorisligini belgilashdagi qarori Xorazmshohlar davlatining ichki birdamligiga putur yetkazgan bo'lishi mumkin. Shu sababli Turkon Xotun shaxsi va faoliyatini baholashda uning murakkab va qarama-qarshi tomonlarini hisobga olish zarur. Aynan malikaning siyosatdagi faoliyati davlat tarixidagi muhim voqealar bilan bog'liq bo'lib, uni tarixdagi kuchli, lekin bir vaqtning o'zida baxsli shaxslaridan biriga aylanishiga olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bunyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. T.:G'afur G'ulom, 1998.
2. Juvayniy. Tarixi Jahonkusho./Nazarbek Rahim tarjimasini. T.:Mumtoz so'z, 2015.
3. Nasaviy. Siyrat as sulton Jalol ad-Din Mangburni./Kamol Matyoqub tarjimasini. T.:O'zbekiston, 1999.
4. Maryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot./Nazarbek Rahim tarjimasini. U.:Ogahiy, 2022.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТУРКОН ХАТУН

Аннотация. В данной статье анализируется политическая деятельность Туркон Хатун, сыгравшей важную роль в политике государства Хорезмшахов в XII-XIII веках. Освещается участие царицы в управлении государством, её влияние на вопрос престолонаследия, а также связи с племенем кипчаков с исторической точки зрения. Также рассматривается её влияние на внутреннюю политику государства и оценивается как историческая личность.

Ключевые слова. Туркон Хатун, политическая деятельность, государство Хорезмшахов, престолонаследие, кипчаки, женское управление.

THE POLITICAL ACTIVITY OF TURKON KHATUN

Abstract. This article analyzes the political activity of Turkon Khatun, who played an important role in the politics of the Khwarazmshahs state in the 12th-13th centuries. It highlights the queen's participation in state governance, her influence on the issue of succession to the throne, and her relations with the Kipchak tribe from a historical perspective. The article also examines her impact on the internal policy of the state and evaluates her as a historical figure.

Keywords. Turkon Khatun, political activity, Khwarazmshahs state, succession to the throne, Kipchaks, female governance.